

**OILA KONSEPTUAL SEMANTIKASINI IFODALOVCHI PAREMIOLOGIK  
BIRLIKALAR**

**Shakirova Nodiraxon Murodjon qizi**

Insonning va ma'naviyatning shakllanishida va rivojlanishida oilaning o'mi beqiyos . Jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'l mish oila ushbu jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda ravnaq topadi. Qadimgi Sharq xalqlarida "oila-Vatan ichidagi Vatan " "oila-mehr-oqibat maskani", "oila-baxt qal'asi" kabi hikmatli so'zlarning mayjudligi oilaning ijtimoiy jihatdan muhimligining yorqin dalilidir. Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi hozirda ham katta ahamiyatga molikdir, chunki u tarixiy, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega. Ushbu ishda paremiologik birliklarni o'zbek tilida qiyosiy-tipologik tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Shunisi ma'lumki, paremiologik birliklar, frazeologik birliklar singari, xalq donoligi natijasida hosil bo'lgan va ma'lum bir namunali g'oyani o'zida aks etgan barqaror birikmalardir. Paremiologik birliklarga maqol, masal, masal, aforizm kabi bir necha turlar kiradi[1].

Paremiologiya - ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi ixcham va sodda , qisqa va mazmundor , mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal , aforizm kabi hikmatli iboralarni - paremalarni o'rgaandigan fan sohasi .

Maqollar xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lib, mavzu jihatdan xilma- xil hisoblanadi va ular asosan didaktik xarakterga ega , Bahodir Sarimsoqovning fikricha , " Maqollar ham o'z ham ko'chma ma'noda qo'llana olish imkoniyatiga egadir"[2].

Xususan, xalq maqollarida milliy tafakkur, xalqaro urf-odat va an'analar, turmush tarzi, milliy mentalitet kabi tushunchalar aks ettirilgan."Oila" tushunchasiga taalluqli o'zbek va ingliz xalq maqollarini quyidagi semantik guruhlarga bo'lish orqali tahlil qilish mumkin[3]:

1.oilaviy hayot, uy-joy, maishiy masalalar bo'yicha maqolalar;

Bir tovuqqa ham don, ham suv kerak (Bola chaqani ,ayniqsa, ular ko'p bo'lsa, boqish oson emas . Har biriga allaqancha narsa kerak . Bu narsalarni muhayyo qilaman , deb ota-onan ozmuncha qiyalmaydi)

2.oila a'zolari va qarindoshlarining ismlari bilan bog'liq maqolalar;

Onaning ko'ngli bolada , bolaning ko'ngli dalada ;

Og'a- ining totuv bo'lsa--ot ko'p , opa- singling totuv bo'lsa --osh ko'p;

3.oilaviy munosabatlarga oid maqolalar;

Bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun baraka ketadi;

Er-xotin urushi -- doka ro'mol qurishi;

4.nikoh, nikoh haqidagi maqollar;

Yaxshi xotin -- umr boli, yomon xotin -- jon zavoli;

Bir qingga ikki pichoq sig'mas , bir uyga -- ikki xotin;

Ikki sigir olganning ayroni bor, ikki xotin olganning vayroni bor;

5.bolaning roli haqida maqollar;

Bolali uy -bozor ,bolasiz uy -mozor;

Bir qizga yetti qo'shni -- ota- ona;

Bolali uyda sir yotmas;  
Bolani yoshdan o'rgat , xotinni boshdan o'rgat;  
Bolani ishga buyur, ketidan o'zing yugur;  
Bolaginamning bola - qandak o'rik donasi;  
Bolalik- podsholik;

**ADABIY OTLAR:**

- 1.Sarimsaqov B . O'zbek xalq maqollari . Toshkent , 1978.
2. Karamatova M.K, Karamatov H.S . Proverbs Maqollar. Toshkent , Mehnat , 2000.
3. Shayislamov , N., Raimova M (2021) O'zbek va Ingliz paremiologik birliklaring qiyosiy semantik tahlili. Scientific progress 427 – 429